E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

FOLKLOR NA'MUNALARI VOSITASIDA BOLALARNI XULQ-ATVOR MEYORLARIGA O'RGATISHNING SAMARALI METODLARI

Musurmonqulova Shahnoza Sodiqjon qizi

Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada folklor na'munalari vositasida bolalarda tarbiyaviy, axloqiy sifatlarni shakllantirish,o'rgatish jarayoni bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, ertak,bolalar adabiyoti, folklorshunoslik, xalq maqollari, vatanparvarlik, komillik.

Kitobxonlik haqida gap ketganda beixtiyor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi «Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida»gi ma'ruzasida kuyunchaklik bilan yoshlarimizning kelajagida muhim o'rin tutgan vazifalar haqidagi so'zlari yodga tushadi

Yurtboshimizning "Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi" [1] degan fikrlari bugun yosh avlod tarbiyasida aynan nimalarga e'tibor qaratish lozimligini yaqqol namoyon etadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya berishda o'quvchi yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta o'zlashtirishlari, ularning badiiy estetik didlarini shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish, har tomonlama yetuk shaxsni, mustaqil fikr kishisini tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalarni ado etishda adabiyot fani umum ta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlari orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Adabiy ta'limning bosh maqsadini ham sog'lom, ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishida ko'p kitob o'qishning o'rni beqiyos Yoshlarni oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ertaklarning rang-barang namunalari bilan tanishadilar. Ana shu tanishuvlar jarayonida ularning umumiy dunyoqarashlari shakllana boradi, shu bilan birga, mazkur asarlar orqali dunyoni tushunish, olam va odamni idrok etish kabi xislatlar tarkib topadi, badiiy-estetik didlari, poetik tafakkurlari o'sib boradi. Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan kishiga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. O'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, erkaliklari, orzu-istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning hech bir xalqnikiga o'xshamaydigan urf-odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu-istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. Ertak – bu mo'jiza. Har doim yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qozonadigan ajoyib dunyo. "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va to'g'ri", "Uchar gilam", "Malikai Husnobod" kabi bir qator o'zbek xalq og'aki ijodi mahsullari o'quvchilarning sevimli ertaklariga aylangan. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi lozimligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar, to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik yovuzlikni mahkumlikka uchratganidan quvonadilar, hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Ertakning voqealari juda qiziqarli bo'lib, tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir. Qadim zamonda o'rtahol bir kishi bo'ladi. Uning uch

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamalkatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi ochilish marosimidagi so'zlagan nutqidan

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

o‘g‘li bo‘ladi. o‘g‘illarini safarga kuzatib qo‘yishdan oldin ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pandnasihatlardan ushbu kishining qanday inson ekanligini osongina bilib olamiz. “O‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb, sizlarni o‘qitdim”, — deydi u. Haqiqatan ham o‘qigan odam dunyoni taniydi, oq-qoraning farqiga boradi. Ilmli va hunarli odam hech qachon xor bo‘lmaydi. Demak, ertak yordamida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasida uning ma’naviy olami, dunyoqarashini boyitishni amalga oshiramiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni adabiyotlar bilan tanishtirish quyidagicha shaklda amalga oshiriladi:

1. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).

2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).

3. O’rta.

Adabiyot ,bolalar folklori yosh avlodni hayotga to’g’ri munosabatda bo’lishga o’rgatadi, onadiyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo’lishga chaqiradi. Kitob bolalarning borliq haqidagi dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Bir so’z bilan aytganda, adabiyot bolalarni xalqimizning o’tmishi, madaniyati, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, ularda faxriftixor tuyg’ularini o’stiradi.

Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do’stlarga sadoqat tuyg’ularini, kattalar bilan birgalikda o’rganib borishadi. Folklor umumxalq san‘atining turlaridan biridir. Binobarin, u doimiy ravishda turli san‘atlar ta‘siriga uchrab turadi. Xususan, u adabiyot, muziy xoreografiya ta‘siri natijasida o’z shaklini, uslubini o’zgartirib, repertuari boyib, mazmunan teranlashib boradi. Umumiy xalq ijodidagi bu qonuniyatlar bolalar qo’shiq va o’yinlariga ham xosdir. Bolalar folklori o’ziga xos janrlarga boy. Biz uni shartli ravishda besh qismga bo’lib tasnif qilamiz. Biroq, bu tadqiqotlarimizda yoritilagan mavzular ham yo’q emas. Masalan, bolalar hozirjavobligi, hazil-mutoyibasi, ayrim poetik lavhalar, kichik-kichik, bolalar tomonidan aytilib, kattalarni ayon qilgan obrazli iboralar bor. O’zbek xalqining topishmoqlari shu xalqning qadimiy madaniyati, tili, tarixi va etnografiyasini, kishilarning o’sh adavrdagi didi, dunyoqarashlarini o’zida aks ettiradi. Topishmoq aytishning qadimdan borligi, xalqning sevimli mashg’ulotlaridan biri ekanligi, son-sanoqsiz ertaklar, qizlarning yigitlarga, shohlarning cho’ponlarga topishmoq aytib javob qaytarishlarida ham ko’rinib turadi. Xalqimizning qahromonlik va ishqiy-romatik dostonlarida ham qahramonlar topishmoqlarga javob topish bilan, jumboqlarni yechish bilan murod-maqsadlariga yetishadilarbola hayotida, tarbiyasida ishtirok etadigan barcha mashg’ulotlar turmush talabi va bolalar tarbiyasi uchun juda zarur barcha o’yinlar o’zining hamma rang-barangligi bilan bugungi maktab darsliklariga kiriltilishi ham, bugungi o’quvchiga yetkazilishi, ularni ham aqliy, ham jismoniy mashg’ul qila olishi zarur. O’zbek bolalar o’yinlarining bir turi bo’lgan topishmoqlar ham ana shu folklorning alohida bir qismidir. O’zbek xalqining maqollari ham shu xalqning milliy an‘analarini,ijtimoiy-tarixiy o’tmishini, orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, sadoqat singari eng yaxshi fazilatlarini aks ettiradi. Maqollar ma‘lum bir ijtimoiy tabaqaning, sinfiy manfaatlariga xizmat qiladi. Maqollarning g’oyaviy kuchi, mazmuni, til jihatidan go’zalligi-ularning kim tomonidan va qaysi maqsadlar uchun, qanday maqsadda yaratilganligiga qarab belgilanadi. Maqollar, matallar, hikmatli so’zlar, o’git, pand-nasihat xarakteridagi mazmuni bilan kishilarning axloqiy qiyofalarini tarbiyalashda har doim yordam berib keladi. Xalq maqollaridagi oxangdorlik, o’tkir badiiy o’xshatishlar, ramz va istiora, qiyosiy solishtirishlar eshituvchini o’ziga rom qiladi, uning badiiy saviyasini oshiradi, ulardagi fikran teranlik, achchiq haqiqat kishilarning irodasini mustahkamlaydi. Jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy tabaqalar maqollardan o’zlariga tegishli va zarur bo’lgan xulosalar chiqarib oladilar.

Xalq o’z maqollarini, asosan, endigina hayotga qadam qo’yib, kirib kelayotgan va ertangi kunining egalari bo’lishga nomzod bo’lgan yosh avlod uchun yaratadi. O’zbek xalqining: «Bola boshidan, tarbiya yoshdan» degan maqoli bor. Bu maqoldan xalqimizning bolalarni juda yoshligidan, hatto tug’ilgan kunidan boshlab tug’ri va sog’lom tarbiya qilish kerak, degan fikri kelib chiqadi. Bola tarbiyasiga oid quyidagi maqollarni keltirish mumkin: «Inson qo’li gul», «Bugungi ishni ertaga qo’yma», «Ko’p o’yla, oz so’zla». «Ayrilganni ayiq yer, bo’linganni bo’ri yer», «Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo’l», «Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar», «Ilm — aql chirog’i», «Kuchli bo’lay desang, do’st orttir», «Ona yurting omon bo’lsa, rangi-ro’ying somon bo’lmas» va hokazolar. Bu maqollarni tushunish uchun bola olti-yetti yil tayyorlanadi. To’g’rirog’i, kattalarning o’zlari bolalarni ularga turli xil nasihatlar, udum so’zlari, obrazli iboralar aytish bilan xalq maqollarini tushunish darajasiga yetkazadilar. Ana shu - kattalar tomonidan, maxsus bolalarga qaratib aytiladigan, maqol va masalalardan ko’ra soddaroq, ammo kichik bolaning eshitishiga va tushunishiga mos, tarbiyaviy maqsadlarni ko’zda tutgan xalq og’zaki iboralarini ibrat-o’git so’zlari deb atash mumkinkattalar bolalarni biror yaxshi odatga o’rgatmoqchi bo’lar ekan, insoniylik uchun zarur bo’ladigan «qoidalarni» deyarli buyruq tarzda bolaga aytadi va shunga rioya qilinishini talab qiladi: «Suvga tupurma», «Nonning ushog’ini yerga to’kma», «Kitobni bosma», «Kechasi tirnoq olma», «Suvga axlat tashlama», «Kosaning tagida qoldirma» va hokazolar. Bunday iboralar ba‘zan «yomon bo’ladi», «gunoh bo’ladi», «uvol bo’ladi» singari so’zlar bilan qo’shib aytilardi. Bolaga aytiladigan majoziy gaplar ham bor. Ular odatda ko’chma ma‘noda keladi: «Ko’zingga qarab yur», «Orqa o’ngingga qarab ol», «Tilingni shirin qil», «Shoshma-shoshar bo’lma», «O’zboshimcha bo’lma», «Seni hasan uribdi». Bu gaplarni bolalar birdaniga tushunavermaydilar, sekin-asta turmush tajribasi ortishi bilan tushunadilar. Ko’pincha bunda bolaga kattalar yordam beradi. Ba‘zi iboralar bolani tartibga chaqirish, jazodan ogohlantirish uchun ishlatiladi. Masalan, «Hoy bola, qadamingni to’g’ri bos», «Teringga somon tiqdiraman», «Ha, Sulaymon o’ldi, devlar qutuldimi», «Sayoq yurma — tayoq yeysan», «Andayib, og’zingdagini oldirib kelma», Og’zingga so’k solib oldingmi?», «Yeb to’ymagan, yalab to’yadimi?», «Nega buncha mechkay bo’lmasang?» Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Bolalarga qorong’u va yorug’lik, sovuqlik va issiqlik, yomonlik va yaxshilik, yolg’on so’z va to’g’ri so’z va nihoyat insofsiz kishi va yaxshi kishilar obrazlari tobora ravshanroq tushunila boshlaydi. Bolalarga asta – sekin aldoqchi, hiyonatkorlar va uni fosh qiliuvchi, u keltirmoqchi bo’lgan ziyonni oluvchi – adolatli, vijdonli, bahodir kishilar haqida fikr tug’iladi. «Oftob chiqdi olamga» qo’shiqlari bir turkum she‘rlarini tashkil qiladi. Aslida qo’shiq oftobning chiqishi bilan bolalar, kattalar quvonchiga bag’ishlangan bo’lsada, bora-bora u maishiy tus olib ketadi. Bolalarning pishiqchilik-arpa, bug’doy pishishi, yantoq, ajriq-ko’rib-o’tin bo’lishi, qozon-tandirlarda non yopilishi, bolalarning to’yib-to’yib non yeyish imkoniyati haqida qo’shiq aytilishi kutiladi. Kattalarning kichiklarga munosabati masalasi ham borki, bolalar bu masalalarga o’z ichki kechinmalarini, araz va ginalarini qo’shiqlarida aytadilar

Davlat boshqaruvidagi keyingi yillardagi ijobiy o‘zgarishlar barcha sohalaridagi kabi xalq og'zaki ijodi namunalarini o‘rganishda ham yangicha yondashuv va yangicha qarashlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. XXI asr folklorshunosligi xalq og'zaki ijodi namunalarini chuqur o‘rganib, tahlil etish, hozirgi davr ijtimoiy munosabatlari bilan bog'lab o‘rganish, ularni dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ'ib etish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunda qudratli qurol bo’lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Shuningdek,o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda, ongini o‘stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda, nutqni boyitishda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshirishda bolalar adabiyoti va folklor na’munaarining o’rni beqiyos. Xalq og‘zaki ijodi yordamida kelajak avlod vatanga muhabbat, xalqqa mehr tuyg‘ulari ruhida kamolga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Islom Hamkorlik Tashkilotiga a’zo malakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi ochilish marosimidagi so‘zlagan nutqi. Toshkent. 2016-yil 18-oktabr.

2. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 7-kitob. O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. B. 62-97. O‘zbek xalq ertaklari//. 3 jildlik. Toshkent: O‘qituvchi, 2007. I jild. – B. 380

3. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti.Oliy o’quv yurtlarining makatabgacha tarbiya fakultetlari uchun darslik. Toshkent.”O’qituvchi”,1994.

4. Mahkamoy Tursunova, Umida Rashidova.Bolalar adabiyoti.O’quv qo’llanma.Samarqand 2021.

Internet manbalari

5. www.Ziyonet. Uz

6.www.edu.uz

WORDLY
KNOWLEDGE